

BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA INDIVIDUAL  
TOPSHIRIQLARNING AHAMIYATI

**Sayfullayeva Zohida Nematulloyevna**

*Buxoro viloyati Buxoro shahar 7-IDUM Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi*

**Bozorova Gulbahor Turdiyevna**

*Buxoro viloyati Buxoro shahar 7 -IDUM Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darslarida individual topshiriqlar bilan ishlash ahamiyati ko`nikmasini shakllantirish haqida fikr yuritilgan.

**Tayanch so'zlar:** individual topshiriq, rasmi topshiriqlar, fanga oid kompetensiyalar, ta'lim,mehnatsevarlik kompetensiyasi.,topqirlilik, hozirjavoblik, individual fikrlash qobiliyati.

**Annotation:** This article discusses the importance of working with individual assignments in elementary school classes.

**Key words:** individual task, pictorial tasks, competences related to science, education, competence of hard work, ingenuity, responsiveness, individual thinking ability.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается важность работы с индивидуальными заданиями на уроках начальной школы.

**Ключевые слова:** индивидуальное задание, изобразительные задания, компетенции, связанные с наукой, образование, компетенция трудолюбия, сообразительность, отзывчивость, индивидуальная мыслительная способность.

O'zbekiston Respublikasini "2017-2021 yillarda rivojlantirishni beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar Strategiyasi", Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori, 2018-yil 25-yanvardagi № PF-5313 "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020-yil), 2020-yil 13-oktabrdagi № PQ-4860 "Alovida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlarida o'sib borayotgan avlodni yangi sifat darajasida o'qitish va tarbiyalash, maktablarda ta'lim-tarbiya sifatini tubdan yaxshilashni, uni jahon andazalariga mos ravishda qayta qurish, ta'limning eskirib qolgan va davr talablariga javob bermaydigan eskicha o'qitish usullaridan voz kechib, ta'lim jarayonida sifat va samaradorlikka erishish talabi qo'yilganini guvohi bo'lamiz.

## "INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

Boshlang'ich ta'limgan isloh qilish, uni ilmiy asoslangan dalillar bilan qaytadan ta'minlash borasidagi fikrlar yurtboshimiz tomonidan o'rta ga tashlangan edi. Shundan keyin bir qator qonun, qaror va ko'rsatmalar e'lon qilindi va ularni amalga oshirish ishlari respublikamiz ta'lim muassasalarida keng quloch yozdi. Ayni damda bu borada muayyan chora tadbirlar rejalashtirilib, ibratga arziguyligi ishlari amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, hali ham o'z yechimini kutayotgan muammolar talaygina.

Bugungi kunda respublikamizda ta'lim sohasida individual topshiriqlardan foydalanishning me'yoriy-huquqiy bazasini tubdan takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalar, ilmiy izlanishlar va texnologiyalarni boshlang'ich ta'lim jarayonlari faoliyatiga integratsiya qilish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarini o'stirishda foydalanib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasini bundanda rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"da "Ta'lim jarayonida natijaviylikka erishish bo'yicha o'quvchilarini har tomonlama intellektual, aqliy va ijodiy tafakkurni o'stirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, innovatsion qarashlardan foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish" kabi muhim vazifalar belgilangan.<sup>1</sup> Ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematika fanini o'rgatishda ijodiy va individual materiallar tizimini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish, fanga bo'lgan qiziqishni o'stirish bilan bir qatorda, Milliy dasturida belgilangan va matematika fanida doir o'zlashtirilishi shart etib belgilangan, bilim, ko'nikma va malakalarini hayotda qo'llay olish dolzarb masalalardan hisoblanadi.<sup>2</sup>

Individual yondashuv nafaqat zaif o'quvchilarining ish faoliyatini yaxshilash, balki kuchli o'quvchilarini rivojlantirish uchun ham zarur bo'lib qoldi va uni tushunish faqat o'quv jarayonidagi past o'zlashtiruvchi o'quvchilarga o'quv vazifalarini epizodik qo'shish bilan cheklanmasligi kerak, balki ko'proq tayyor o'quvchilar - qiyinchilik kuchaygan vazifalari mavjud topshiriqlar ishlab chiqish lozim.

Individual yondashuv tamoyilining mohiyati jamiyat talablariga zid bo'lgan ijobjiy xususiyatlarni maksimal darajada rivojlantirish va salbiy individual xususiyatlarni bartaraf etish maqsadida o'quv jarayonida har bir o'quvchining individual xususiyatlarini o'rganish va hisobga olishdan iborat. Bu uning o'quvtarbiyaviy ishlari sifatini har tomonlama yuksaltirish, o'quvchilarining har tomonlama kamol topishi, ijodiy qobiliyat va iste'dodlarining ravnaq topishini ta'minlashga asos bo'lmoqda.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.02.2017-yildagi PF-4947-son

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.05.2022 yildagi PF-134-son

## "INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish talabi hech qanday tarzda dasturlarni va ta'limning umumiyligi talablarini har bir o'quvchining xususiyatlariga moslashtirishni anglatmaydi.

Bu talab ta'limning umumiyligi vazifalarini va ma'lum bir o'quv davri vazifalarini amalga oshirish maqsadida individual va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quvchiga ma'lum ta'sir tizimini ishlab chiqish zarurligini anglatadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari matematikadan turli darajadagi tayyorgarlikka ega, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishda teng bo'limgan yutuqlarga ega, matematikaga o'quv predmeti sifatida har xil qiziqish bildiradilar. Shuni inobatga olgan holda, o'qituvchi o'quvchilarning ushbu individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qitishi kerak. Zamonaviy ta'limga xos texnikani o'z ichiga olgan bunday ish har bir o'qituvchi tomonidan matematika darslarida amalga oshirilishi kerak.

Shulardan kelib chiqqan holda 2-3-sinf matematika darslarida berilgan topshiriqlarni 3 ta kata guruhga bo'lib chiqib o'rgatadigan bo'lsak Bular:

Rasmlı topshiriqlar.

Matnli topshiriqlar.

Sonli topshiriqlar.

Ushbu topshiriq rasmlı topshiriq bo'lib, uni o'quvchilarga tushuntirishda avvalo tahlil qilib o'tamiz:

Rasmida nimalarni ko'ryapsiz?

U nimalarga ajratilgan?

To'liq tasvir hosil bo'lishi uchun siz nimqa qilishingiz kerak?


x - bu qaysi amal?

Bizga nima noma'lum?

Buni qanday topdingiz?


Kabi savollar orqali avval rasm va chizma mazmuni o'quvchiga tushuntiriladi. 3-4-sinflarda esa bu ko'nikma ularda malaka sifatida shakllanib boradi. Rasm orqali sonli va matnli individual topshiriqlarni tuzish, ularda qiziqish uyg'otish bilan bir qatorda, ko'paytirish amalini tezroq yod olishini tezlashtirdi, tasavvurni boyitadi.

**"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION:  
WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"**



Ushbu individual topshirig'imizni 2-3-sinf matematika darslaridagi ko'paytirish va bo'lishga oid mavzularni o'tishda va takrorlashda samarali qo'llash maqsadga muvofiq. Bu orqali o'quvchi nafaqat ko'paytirish amalidan foydalangan holda misolni yechadi bajaradi, balkirasmlarni o'z o'rniqa qo'yish orqli suratni hosil qiladi, farqlaydi, mantiqiy matematik farazi asosida fikr yuritib topshiriqni qiynalmay bajara oladi.

Boshlang`ich sinf o'qituvchisi darsga puxta tayyorlangan holda didaktik materiallardan – didaktik topshiriqlardan foydalanib dars o'tsa, bolalarga bilim berish ancha osonlashadi, bir soatlik saboq mazmundorligi ancha oshadi. Ayniqsa, bu borada boshlang`ich ta'lif darslaridagi o'quv materiallar o'quvchilar oldiga ijodiy izlanish, tashabbuskorlik xislatlarini qo'yadi. Darslikdagi o'quv topshiriqlarni bajartirishda turli usullar va zehnlarni o'stiruvchi vositalardan, didaktik topshiriqlardan unumli foydalanish katta ahamiyatga ega.



Xulosa qilib aytganda individual topshiriqlarning dars mavzusiga mos va bola yosh xusuiyatlatini inobatga olib qo'llanishi bolaning tezkorlik, hozirjavoblik mantiqiy fikrlash, tafakkurini kengaytirish kabi ko'plab qobiliyatlarini rivojlantiradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ilova // <http://www.lex.uz>.
2. Bikbayeva N.U. Matematika testlar daftari 3-sinf. – Toshkent: "O'qituvchi", 2016. – 60 b.
3. Bikbayeva N.U. Matematika 4. – Toshkent: "O'qituvchi", 2020. – 208 b.
4. Bikbayeva N.U. Matematika testlar daftari 2-sinf. – Toshkent: "O'qituvchi", 2016. – 60 b.
5. Jumayev M.E. Matematika o'qitish metodikasi. – Toshkent: 2016. –
6. [www.Multimedia.uz](http://www.Multimedia.uz) Multimedia umumta'lim dasturlarini rivojlantirish markazi.
7. [www.eduportal.uz](http://www.eduportal.uz)
8. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)